

INTEGRATSIYALASHGAN ONA TILI TA'LIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Mamarajabova Ozoda Zokir qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti
Ilmiy rahbar: dots. O.Anorqulova
mamarajabova.ozoda825@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada integratsiya tushunchasining ta'lismiga kirib kelishi, uning mazmun va mohiyati, yuqori sinf o'quvchilariga ona tili ta'lmini integratsiyalashgan holda tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, integratsiyalashgan ona tili ta'lmining amaliy-nazariy asoslarni tahlil qilish, yuqori sinf darsliklari dagi mavzularni integratsion yondashuvga aloqadorligi, darsliklarda integratsion yondashuvlar va ularning samaradorligi xususida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Integratsiya, ona tili ta'limi, integrativ yondashuv, fanlararo aloqa, integratsiyaning ilmiy-nazariy asoslari, ko'p taraflama yondashuv, amaliy yondashuv, kompetentsiyaviy yondashuv, yuqori sinf darsliklari, samaradorlik.

ENTEGRÉ ANA DİLİ EĞİTİMİ FARKLI ÖZELLİKLER

*Mamarajabova Ozoda Zakir'in kızı
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü yüksek lisans öğrencisi
Bilimsel danışman: doçent O. Anorkulova*

Özet. Bu makalede, eğitim sisteme entegrasyon kavramının tanıtılması, içeriği ve özü, lise öğrencileri için ana dili eğitiminin bütünsel organizasyonunun belirli özelliklerinin incelenmesi, bütünsel ana dili eğitiminin pratik ve teorik temellerinin analizi, lise ders kitaplarındaki konuların bütünlendirici yaklaşımla ilgisi, ders kitaplarındaki bütünlendirme çalışmaları ve bunların etkiliği sunulmaktadır.

Anahtar kelimeler. Entegrasyon, anadilde eğitim, bütünlendirici yaklaşım, disiplinler arası iletişim, entegrasyonun bilimsel-teorik temeli, çok taraflı yaklaşım, pratik yaklaşım, yeterlilik yaklaşımı, üst sınıf ders kitapları, verimlilik.

ОСОБЕННОСТИ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

*Мамараджабова Озода Закир кизи,
магистрантка Узбекско-Финского педагогического института
Научный руководитель: доцент О.Аноркулова*

Аннотация. В данной статье представлено внедрение понятия интеграции в систему образования, его содержание и сущность, исследование особенностей интегрированной организации родного языка обучения старшеклассников, анализ практических и теоретических основ интегрированного родного языка, соответствие тем в учебниках вузов интегративному подходу, интеграционные подходы в учебниках и их эффективность.

Ключевые слова. Интеграция, родное образование, интегративный подход, междисциплинарная коммуникация, научно-теоретические основы интеграции, многосторонний подход, практический подход, компетентностный подход, учебники для старших классов, эффективность.

PECULIARITIES OF INTEGRATED MOTHER TONGUE EDUCATION

Mamarajabova Ozoda Zokir qizi,
master's student's of the Uzbek-Finnish pedagogical institute
Scientific supervisor: associate professor O. Anorkulova

Abstract. In this article, the introduction of the concept of integration into the educational system, its content and essence, the study of the specific features of the integrated organization of mother tongue education for high school students, the analysis of the practical and theoretical foundations of integrated mother tongue education, the relevance of topics in high school textbooks to the integrative approach, the integration approaches in textbooks and their effectiveness are presented.

Keywords. Integration, mother tongue education, integrative approach, interdisciplinary communication, scientific-theoretical basis of integration, multilateral approach, practical approach, competence approach, upper class textbooks, effectiveness.

Hozirgi rivojlanib borayotgan bir davrda barcha sohalar ildamlik bilan oldinga siljimoqda. Aynan ta'lif sohasi ham bundan mustasno emas. Ta'lif haqida gap ketganda esa biz ko'pincha "integratsiya" tushunchasiga duch kelmoqdamiz. Aslida integratsiya nima?

Integratsiya so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, integration-tiklash, to'ldirish integer-butun ma'nolarini anglatadi. Bu so'z faqat bir ma'noda emas, ko'plab tarmoqlarda qo'llanilsa bo'ladi. Aslida suveren davlatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni hisoblanadi. Undan tashqari integratsiyaning turli ma'nolari mavjud:

- 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha;
- 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kechadi;
- 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish.

Aynan "integratsiya" tushunchasini ta'lif bilan bog'lamoqchi bo'lsak, yuqorida keltirilgan ma'nolardan ikkinchisini, ya'ni pedagogik ta'limgagi o'rni fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayonini anglatuvchi tushuncha ma'nosida qo'llaymiz. Integratsiya g'oyasi XVIII asrlarning 20-yillarida ingliz olimi G.Spenser tomonidan fanga kiritilgan. Integratsiya - fanlar, olimlar, amaliyotchilar, birinchi navbatda o'qituvchilar hamda ta'lif muassasalari va ularning bo'linmalari rahbariyatining o'zaro hamkorligi asosida ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan maqsadli sa'y-harakatlar jarayoni va natijasidir. Integratsiya fanlar o'rtasidagi va fanlar ichidagi farqni "bekor eta olmaydi"[1, 5 b].

Integratsiyaning ta'lif sistemasida muhimligini birinchilardan bo'lib mashhur pedagog I.F.Gerbart tushuntirib bergan. U ta'linda integratsiyani qo'llashning to'rtta yo'nalishini sanab bergan. Bular quyidagilar:

1. Aniqlilik.
2. Assotsiatsiaviylik.
3. Tizim.
4. Metod.

Integratsiyaning birinchi va ikkinchi yo'nalishlari bilim olishga yo'naltirilgan bo'lib, uchinchi va to'rtinchi yo'nalishlari esa eski bilimlar va yangi bilimlarni bir-biri bilan uzviy bog'lash demakdir. I.F.Gerbart bu yo'nalishlar orqali integratsiyalashuv jarayoni mukammal ravishda sodir bo'ladi deb aytib o'tgan [2, 702 b].

Barchamizga ma'lumki, ta'lif tizimida ona tilini o'qitish yetakchi o'rin tutadi. Hozirgi axborotlashgan davrda esa uzluksiz ta'lif tizimida ona tili darslarini noan'anaviy tarzda tashkil qilish, dars davomida turli axborot texnologiyalaridan foydalananib darsni qiziqarli va unumli o'tkazish, dars o'tishning yangi-yangi usul va metodlarini o'ylab topish va o'quvchilar e'tiborini jalb qila olish o'qituvchining bilimli ekanligi bilan birgalikda, uning izlanuvchanlik va

yaratuvchanlik qobiliyatiga ham bog'liq bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda esa o'qituvchi darsni integrativ tarzda, bir fanni boshqa fanlar bilan bog'liq holatda tashkil qilishi ham samarali foyda beradi. Ona tili fani ham boshqa fanlardan alohidalikda emas, aksincha bog'liq holda rivojlanadi. Shu jihatidan esa ona tili darslarini ham boshqa fanlar bilan bog'lab o'rgatish o'z samarasini ko'rsatadi. Jumladan, ona tili uzlusiz ta'lif tizimida o'rganiladigan bir qancha fanlar adabiyot, geografiya, matematika, fizika, biologiya, informatika, xorijiy tillar bilan o'zaro aloqadorlikda tashkil qilinmoqda. Bu kabi integrativ darslar tashkil qilinishi o'quvchilarning berilgan mavzuni tez va oson, aniq va qiziqarli tarzda anglashiga, tushunishiga sabab bo'lmoqda. Bilamizki, ona tili fanini adabiyotdan alohida tasavvur qilish qiyin. Bu ikki fan o'zaro aloqadorlikda tashkil etiladi. Barchamiz adabiyotni so'z san'ati ekanligini bilamiz, ona tilida ham so'zlar ustida ishlanadi. Bu ikki o'xshashlik ikkala fanning ham jozibasini, mazmunini ochib berishda yetakchi o'rin egallaydi. Negaki, ona tilini asosli ravishda anglamay turib, o'quvchilar ongida adabiyotning go'zalligi va qudratli tarbiya vositasi ekanligini shakllantirish mumkin emas. Beshinchisinf darsliklaridan boshlab turli xildagi tahlil jarayonlariga duch kelamiz. Adabiyot darsliklarida berilgan biror badiiy asarning tilini o'rganishda stilistik tahlil usulidan foydalanamiz. Bunda esa biz birinchi berilgan asarning g'oyasini aniqlab olamiz va g'oyaviy mazmunini ochib berishda asos bo'ladigan til vositalarini aniqlaymiz va shunga qarab yozuvchining tinish belgilarning o'rinli qo'llanganligi va gap mazmunini ochib berishdagi o'rni, so'z tanlash, so'zlarni o'zaro bog'lash usullari va gap tuzish mahorati aniqlanadi. Shunday ekan ona tili darslarini adabiyot bilan uyg'unlikda tashkil qilish, o'quvchilarning fikrlash qobiliyati va badiiy-estetik dunyoqarashining kengayishiga sabab bo'ladi.

Hozirda yangilanib borayotgan darsliklarga e'tibor bersak, yangi avlod darsliklari integratsiya asosida tashkil qilinib, nashrha tayyorlanmoqda. Yangilangan ona tili darsliklari ham aynan integrativ dars mavzulari bilan shakllantirilgan. Berilgan mavzularga e'tibor beradigan bo'lsak, aynan eski darsliklar qolipidan chekinganligini kuzatishimiz mumkin. Ona tiliga oid qolipa solingan mashq va qoidalarga qaraganda, nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilarning ham chuqurroq fikrlashi va yanada ko'proq izlanishiga sabab bo'ladigan mavzular kiritilgan. Mavzu doirasida berilgan matnlar ham boshqa fanlar bilan bog'langan tarzda keltirilgan. Masalan yangi ona tili darsliklari adabiyot, tarix, musiqa, fizika, biologiya, geografiya va zamonaviy texnologiya bilan integratsiyalashgan holda tashkil qilingan.

Maktab ta'lmini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida olim Y.A.Samarinning assotsiativ tafakkur to'g'risidagi fikrlarini o'rinli deb qarashimiz mumkin. Y.A.Samarinning fikrlari mazmuni shundan iboratki, "Har qanday bilim bu-o'xshatish, bilimlar tizimi esa o'xshatishlar tizimidir". Olim fikrlariga tayanib o'xshatishlarning quyidagi turlarini sanab o'tadi:

- Lokal o'xshatish.
- Biror tizimga tegishli bo'lgan o'xshatish.
- Tizim ichidagi o'xshatish
- Tizimlar orasidagi o'xshatish.
- Aqliy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi [3,16 b].

Umumiyl o'rta ta'lim sohasida integratsiya muammosi rivojlanishining muhim bosqichi fanlararo aloqalarni o'rnatish bo'ldi (I.F.Borisenko, I.D.Zverev, K.P.Korolev, P.G. Kulagin, I.Ya.Lerner, N.A.Loshkareva, V.N.Maksimova, V.N.Asarlar). Ta'lim mazmunini integratsiyalashuvining zamonaviy muammolari uni amalga oshirishning (integratsiya) yangi variantlarini keltirib chiqaradi. Maktab ta'lmining bunday variantlari orasida mafkuraviy masalalar bo'yicha integratsiya muhim ahamiyatga ega. Bunday holda, falsafiy muammolar integratsiya tamoyili sifatida ajratiladi. Maktab ta'lmini mazmunini integratsiyalashuvining ushbu yo'nalishini amalga oshirishning yetakchi usullari mafkuraviy xarakterdagi yagona g'oya bilan "bog'langan" integratsiyalashgan darslardir; ijodkorlikni talqin qilish va turli o'quv fanlari mazmunida "shaxslar" hayotini o'rganilayotgan davrning falsafiy va axloqiy muammolari kontekstida, muayyan mamlakat madaniyatining rivojlanishi kontekstida ko'rib chiqish; o'tkazilgan darslarning falsafiy va uslubiy

aks ettirilishi (bu holda asosiy ta'sir o'qituvchilarning falsafiy madaniyatini rivojlantirish bo'lib, bu ularga o'quv jarayonini gumanistik pedagogika g'oyalari kontekstida tushunish va tuzish imkonini beradi)[4, 14-20].

Integratsiyalangan ona tili ta'limining o'ziga xos xususiyatlari:

Fanlararo bog'lanishlar: Integratsiyalangan darslarda ona tili fani boshqa fanlar bilan uzviy bog'langan holda o'qtiladi. Bu esa o'quvchilarga bilimlarni chuqurroq anglab olishga va ularni o'z hayoti davomida qo'llashga imkon yaratadi.

Ko'p taraflama yondashuv: Bir mavzuni turli fanlar nuqtai nazaridan o'rganish o'quvchilarning tafakkur doirasini kengaytiradi va ularda har tomonlama tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Amaliy yondashuv: Integratsiyalangan darslarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilar loyihalar, taqdimotlar, munozaralar va boshqa shakllarda ishtirok etib, o'zlarining bilim va ko'nikmalarini namoyish etadilar.

Kompetentsiyaviy yondashuv: Integratsiyalangan ta'lim kompetentsiyaviy yondashuvga asoslanadi. O'quvchilarda muayyan kompetentsiyalarni (masalan, muloqot ko'nikmalari, muammolarni yechish ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash va boshqalar) shakllantirishga alohida e'tibor beriladi.

Kognitiv rivojlanish: Integratsiyalashgan ona tili ta'limi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini yanada oshiradi. Ular berilgan mavzuni shunchaki eslab qolish bilan cheklamasdan, balki berilgan mavzuni tahlil qila olish va fikrlarini erkin aytish, xulosa chiqara olish xususiyatiga ega bo'ladilar.

Til va muloqot madaniyati: Ona tili ta'limida til va muloqot masalasi yetakchi turadi. Bu bosqichda o'quvchilar faqatgina grammatick kategoriya va grammatick shakllarni o'rganibgina qolmasdan, ularning qo'llanishi va muloqot jarayonidagi o'rniha ham e'tibor berishadi va uning jamiyatdagi rolini ham o'rganadi. Har bir mintaqva va jamiyat o'z muloqot madaniyatiga ega. Ona tilini o'rganish orqali esa o'quvchilar turli jamiyat vakillarining til va muloqot madaniyatini ham o'rganishadi. Bu esa ularning jamiyatda o'z o'mini egallashiga va axloqiy sifatlarining oshishiga sabab bo'ladi.

Ijodiylikni rivojlantirish. Integratsiyalangan darslarda ijodiylikka keng imkoniyatlar yaratiladi. O'quvchilar o'zlarining ijodiy ishlarini (rasmlar, esselar, she'rlar, hikoya va boshqalar) yaratishga o'zlarining fikrlarini erkin ifoda etishga da'vat etiladilar. Aynan integratsiyalangan ta'limda mavzular murakkab va ko'p taraflama vazifalarni bajarilishi va mavzularning bir-biri bilan bog'liq ekanligini berilgan mavzuni chuqur o'rganishga va o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Integratsiyalashgan ona tili ta'limining samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining ham darsga qanday yondashuvi juda muhim. O'qituvchi har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olishi, ularni rag'batlantirishi va darsni qiziqarli o'tkazish maqsadida turli usul va metodlarni dars jarayonida qo'llay bilishi kerak. Shuningdek, o'qituvchi darsni tushuntirishda va mustahkamlash bosqichlarida barcha ma'lumotlarni aytib berishdan oldin o'quvchilar fikrini tinglay bilishi, xatot bo'lsa uni to'g'ri anglata olishi ham kerak. Umuman olganda, o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifodalash, savollar berish va muhokama qilish imkoniyatini yaratishi zarur. Bu esa o'quvchilarning o'z bilimiga bo'lgan ishonchini oshiradi va ta'lim jarayonini samarali qiladi.

Xulosa qilib aytganda, rivojlanib borayotgan bir davrda integratsiyalashgan ona tili ta'limi faqatgina tilni o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, ona tilini boshqa fanlar bilan integratsiya asosida bog'lab o'rgatish orqali o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish, muloqot madaniyatini kuchaytirish, erkin fikrlay olish, ijodiylikni oshirish, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Integrativ yondashuv o'quvchilarga turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish imkonini yaratadi. Ona tili ta'limining integratsiyalashgan yondashuvi, ayniqsa zamona viy ta'lim tizimida, o'quvchilarning umumiylarini kengaytiradi va ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ta'lim tizimining samaradorligini oshirish va yangi metodlarni qo'llash orqali integratsiyalashgan ona tili ta'limining imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Пачина Н.Н. Интеграция педагогики и психологии в образовательном процессе университета. – Елец. 2006. стр.254.
2. Yusupova A.M. Ona tili darslarini integratsiya usullarida tashkil qilish. "Экономика и социум" №12 (91)-1 2021. 702-b.
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiya-lashgan pedagogikasi. – Т: Ilm ziyo. 2009. 16-b.
4. Живокоренцева Т.В. Интеграция содержания образования в педа-гогическом колледже как проблема коллективного практико-ориентированного исследования. Санкт-Петербург - 2005. Стр.14-20.
5. Atoeva M.F. "Integratsiyalashgan ta'lim" maqolasi. "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" jurnali. 2023-yil. №9
6. Ozoda Nizomjon Kizi Anorqulova. Current research journal of philological sciences. <https://doi.org/10.37547/philo logical-crjps-02 07-06>
7. Anorqulova, O. N. K. (2021). Interpretation of the concept of father in some oral and written sources. *Current research journal of philological sciences*, 2(07), 20-24.